



KIYIM MAYDA DETALLARIGA ISHLOV BERISHNI O'QITISHDA DIFFERENSIAL TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH

Pulatova Muqaddas

Farg'ona imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan

maxsus texnikumi ta'lim ustasi

pulatovamykaddasxon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kasb-hunar ta'limi tizimida, xususan, tikuvchilik yo'nalishida kiyimning mayda detallariga (yoqa, manjet, cho'ntak, klapan, xlyastik, pogon va boshqalar) ishlov berish texnologiyasini o'qitishda differensial ta'lim metodlarini qo'llashning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari yoritilgan. Differensial yondashuvning mohiyati, uni amaliy mashg'ulotlarda tashkil etish bosqichlari, o'quvchilarni tayyorgarlik darajasi bo'yicha guruhlarga ajratish mezonlari hamda darajali topshiriqlar tizimini ishlab chiqish metodikasi tahlil qilingan. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlashda differensial ta'limning korreksion-rivojlantiruvchi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada keltirilgan metodik tavsiyalar kasb-hunar maktablari, texnikumlar va maxsus ta'lim muassasalarining ta'lim ustalari hamda ishlab chiqarish ta'limi o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: differensial ta'lim, individual yondashuv, kasb-hunar ta'limi, tikuvchilik, kiyim mayda detallari, yoqa, manjet, cho'ntak, darajali topshiriqlar, ishlab chiqarish ta'limi, inklyuziv ta'lim, texnologik ketma-ketlik.

Abstract. This article examines the theoretical foundations and practical possibilities of applying differentiated instruction methods in teaching the technology of processing small garment details (collars, cuffs, pockets, flaps, straps, etc.) in vocational education, particularly in sewing. The essence of the differentiated approach, the stages of its organization in practical training, the criteria for grouping



students by level of readiness, and the methodology for developing a system of multi-level tasks are analyzed. Special attention is paid to the correctional and developmental significance of differentiated instruction when working with students with disabilities.

Keywords: differentiated instruction, individual approach, vocational education, sewing, small garment details, collar, cuff, pocket, multi-level tasks, industrial training, inclusive education.

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida kasb-hunar ta’limi tizimini isloh qilish, har bir o‘quvchining individual imkoniyatlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda sifatli kasbiy tayyorgarlikni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim oluvchilarning individual ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olish, shu jumladan alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan shaxslar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish ta’lim sohasidagi asosiy tamoyillar sifatida belgilab qo‘yilgan.

Tikuvchilik kasbiga o‘qitishda kiyimning mayda detallariga ishlov berish texnologiyasi alohida o‘rin tutadi. Yoqa, manjet, cho‘ntak, klapan, xlyastik, pogon, kamar kabi mayda detallar buyumning eng ko‘zga tashlanadigan, sifatini belgilovchi qismlari bo‘lib, ularga ishlov berish o‘quvchidan yuqori aniqlik, nozik qo‘l harakatlari, texnologik ketma-ketlikka qat’iy rioya qilish va mustahkam nazariy bilimlarni talab etadi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, aynan shu mavzuni o‘zlashtirishda o‘quvchilar o‘rtasidagi farqlar - idrok tezligi, qo‘l motorikasi rivojlanganligi, diqqatni jamlash qobiliyati, oldingi tayyorgarlik darajasi - eng yaqqol namoyon bo‘ladi.



Barcha o‘quvchilarga bir xil mazmun, bir xil sur‘at va bir xil murakkablikdagi topshiriqlar bilan ta‘lim berish ayrim o‘quvchilarning ortda qolishiga, boshqalarining esa qiziqishi so‘nishiga olib keladi. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan o‘quvchilar tahsil oladigan ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalarida bu muammo yanada dolzarbdir. Shu sababli kiyim mayda detallariga ishlov berishni o‘qitishda differensial ta‘lim metodlarini qo‘llash - har bir o‘quvchining real imkoniyatlaridan kelib chiqib, unga mos mazmun, sur‘at va yordam darajasini tanlash - ta‘lim sifatini oshirishning samarali yo‘li hisoblanadi.

DIFFERENSIAL TA‘LIMNING NAZARIY ASOSLARI

Differensial ta‘lim (lotincha “differentia” - farq, tafovut) deganda o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlari, bilim darajasi, o‘zlashtirish sur‘ati va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta‘lim jarayonini turli guruhlar uchun moslashtirib tashkil etish tushuniladi. I.E.Unt ta‘rificha, differentsiatsiya - bu o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishning shunday shakli, bunda ular muayyan belgilar asosida guruhlariga birlashtiriladi va har bir guruh bilan o‘ziga xos tarzda ishlanadi.

L.S.Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi differensial ta‘limning psixologik asosini tashkil etadi: ta‘lim o‘quvchining hozirgi imkoniyatlaridan biroz yuqorida, lekin pedagog yordamida erishish mumkin bo‘lgan darajada tashkil etilsa, u rivojlanishni yetaklaydi. K.Tomlinson esa differentsiatsiyani uch yo‘nalishda amalga oshirishni taklif etadi: mazmun bo‘yicha (nimani o‘rganadi), jarayon bo‘yicha (qanday o‘rganadi) va natija (mahsulot) bo‘yicha (o‘zlashtirganini qanday namoyish etadi).

Pedagogik amaliyotda differentsiatsiyaning ikki asosiy turi farqlanadi: tashqi differentsiatsiya (alohida guruhlar, sinflar, yo‘nalishlar tashkil etish) va ichki differentsiatsiya (bitta guruh ichida turli darajadagi topshiriqlar, turli sur‘at va yordam hajmini qo‘llash). Kasb-hunar ta‘limida, xususan, ishlab chiqarish ta‘limi



mashtg'ulotlarida aynan ichki differentsiatsiya eng samarali va qo'llash uchun qulay shakl hisoblanadi.

KIYIM MAYDA DETALLARIGA ISHLOV BERISH MAVZUSINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kiyim konstruksiyasida detallar asosiy (old bo'lak, orqa bo'lak, yeng) va mayda detallarga bo'linadi. Mayda detallarga yoqa va uning osti, manjet, cho'ntak (ustki, prorezli, yon chokdagi), klapan, listochka, obtachka, xlyastik, pogon, kamar, shlyovka, planka kabilar kiradi. Ularga ishlov berish texnologiyasi quyidagi umumiy bosqichlarni o'z ichiga oladi: detallarni bichish va juftlashtirish, dublirlash (yelimli prokladka qo'yish), qo'shib bastirish, burchaklarni kesib to'g'rilash, ag'darish, kant chiqarib dazmollash va bezak baxyasi yurgizish.

Bu operatsiyalar o'quvchidan 1–2 mm aniqlikdagi chok kengligini ushlab turish, burchaklarda baxyani to'g'ri burish, simmetriyani saqlash kabi nozik malakalarni talab etadi. Metodik nuqtai nazardan mavzuning murakkabligi shundaki, kichik xatolik (masalan, yoqa uchlarining notekisligi) tayyor buyumda darhol ko'zga tashlanadi va uni tuzatish ko'pincha detalni qaytadan tikishni taqozo etadi. Shu bois o'quvchilarning tayyorgarlik darajasidagi farqlar bu mavzuda o'zlashtirish natijalariga kuchli ta'sir ko'rsatadi va differensial yondashuvni zaruriy shartga aylantiradi.

DIFFERENSIAL TA'LIMNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Kiyim mayda detallariga ishlov berishni o'qitishda differensial ta'limni tashkil etish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich - diagnostika. Mavzuni o'rganishdan oldin ta'lim ustasi o'quvchilarning nazariy bilimlari (chok turlari, texnologik atamalar, xavfsizlik qoidalari), amaliy ko'nikmalari (to'g'ri baxya yurgizish, dazmollash sifati, ish sur'ati) va individual xususiyatlarini (qo'l motorikasi, diqqat barqarorligi,



mustaqillik darajasi) o‘rganadi. Diagnostika test, kuzatish va kichik amaliy sinov topshirig‘i (masalan, to‘g‘ri to‘rtburchak namunaga 5 mm kenglikda baxya yurgizish) orqali o‘tkaziladi.

Ikkinchi bosqich - shartli guruhlash. Diagnostika natijalariga ko‘ra o‘quvchilar shartli ravishda uch guruhga ajratiladi. Birinchi (reproduktiv) guruh - tayanch bilim va ko‘nikmalari yetarli shakllanmagan, doimiy yordamga muhtoj o‘quvchilar; ikkinchi (konstruktiv) guruh - namuna asosida mustaqil ishlay oladigan, vaqti-vaqti bilan yo‘naltirishga muhtoj o‘quvchilar; uchinchi (ijodiy) guruh - texnologiyani tez o‘zlashtiradigan, murakkablashtirilgan va ijodiy topshiriqlarni bajarishga qodir o‘quvchilar. Muhimi, guruhlar harakatchan (ochiq) bo‘lishi, o‘quvchi natijasi yaxshilangani sari yuqoriroq guruhga o‘tishi ta‘minlanishi lozim.

Uchinchi bosqich - darajali topshiriqlar tizimini ishlab chiqish. Har bir mayda detal bo‘yicha uch darajadagi topshiriqlar tayyorlanadi. Quyidagi jadvalda “Yoqaga ishlov berish” mavzusi misolida darajali topshiriqlar tizimi keltirilgan.

Guruh (daraja)	Topshiriq mazmuni	Yordam va nazorat shakli
I - reproduktiv	Tayyor andoza bo‘yicha bichilgan, belgilash chiziqlari tushirilgan to‘g‘ri burchakli yoqani namuna va instruksion karta asosida bosqichma-bosqich tikish	Batafsil instruksion-texnologik karta, har bir operatsiyadan keyin usta nazorati, operatsiyani ustaning ko‘rsatishi
II - konstruktiv	Yoqani mustaqil bichish, dublirlash va ishlov berish;	Qisqartirilgan texnologik karta, oraliq (3 nuqtadagi)



	chok kengligi va kant tekisligini o‘zaro nazorat qilish	nazorat, juftlikda o‘zaro tekshirish
III - ijodiy	Murakkab shakldagi (uchli, dumaloq) yoqaga ishlov berish, bezak baxya variantini mustaqil tanlash, I guruh o‘quvchisiga ustozlik qilish	Faqat yakuniy sifat nazorati, o‘z-o‘zini baholash varag‘i, ijodiy taqdimot

To‘rtinchi bosqich - mashg‘ulotni o‘tkazish. Kirish yo‘l-yo‘rig‘i (vvodniy instruktaj) barcha uchun umumiy o‘tkaziladi: detal tuzilishi, texnologik ketma-ketlik, sifat talablari va xavfsizlik qoidalari tushuntiriladi, ish usullari namoyish etiladi. So‘ngra mustaqil ish bosqichida har bir guruh o‘z darajasidagi topshiriqni bajaradi. Joriy yo‘l-yo‘riq differensial tarzda beriladi: ta‘lim ustasi vaqtining asosiy qismini birinchi guruh bilan ishlashga sarflaydi, uchinchi guruh o‘quvchilari esa qisman “kichik usta” vazifasini bajarib, tengdoshlariga yordam beradi. Yakuniy yo‘l-yo‘riqda har bir guruh natijasi o‘z mezonlari asosida baholanadi, ammo umumiy sifat talablari (chok tekisligi, kant kengligi, dazmollash sifati) hamma uchun yagona bo‘lib qoladi.

IMKONIYATI CHEKLANGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA DIFFERENSIAL YONDASHUV

Ixtisoslashtirilgan maxsus ta‘lim muassasalarida differensial ta‘lim nafaqat didaktik, balki korreksion-rivojlantiruvchi vazifani ham bajaradi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun ko‘rgazmalilikni kuchaytirish - har bir operatsiya rasmlar, namunalar va video-fragmentlar bilan ifodalangan instruksion kartalar, sxemalar va shartli belgilar tizimidan foydalanish samarali hisoblanadi. Harakat-



tayanch a'zolarida cheklovi bo'lgan o'quvchilar uchun ish o'rni ergonomikasi moslashtiriladi, operatsiyalar maydaroq qadamlarga bo'linadi, bajarish vaqti uzaytiriladi.

Aqliy rivojlanishida ortda qolishi bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashda "kichik qadamlar" tamoyili qo'llaniladi: yoqaga ishlov berish kabi murakkab jarayon 8–10 ta elementar operatsiyaga ajratiladi, har biri alohida mustahkamlanadi va ko'p marta takrorlanadi. Bunday o'quvchilar uchun topshiriqning hajmi emas, avvalo, yordamning turi differentsiyalanadi: og'zaki yo'naltirishdan birgalikda bajarishgacha. Tajriba shuni ko'rsatadiki, to'g'ri tashkil etilgan differensial yondashuv imkoniyati cheklangan o'quvchilarda nafaqat kasbiy ko'nikmalarni, balki o'ziga ishonch, mustaqillik va mehnatga ijobiy munosabatni ham shakllantiradi, bu esa ularning kelgusi ijtimoiy-mehnat rehabilitatsiyasi uchun poydevor bo'ladi.

DIFFERENSIAL TA'LIM SAMARADORLIGINING PEDAGOGIK SHARTLARI

Olib borilgan kuzatishlar va metodik tahlillar kiyim mayda detallariga ishlov berishni o'qitishda differensial ta'lim samaradorligini ta'minlovchi quyidagi pedagogik shartlarni ajratish imkonini beradi:

- diagnostikaning muntazamligi - o'quvchilarning guruhlardagi o'rni har mavzu yakunida qayta ko'rib chiqilishi;
- didaktik ta'minotning to'liqligi - har bir detal bo'yicha uch darajadagi instruksion-texnologik kartalar, namunalar kolleksiyasi va nazorat varaqlarining mavjudligi;
- yagona sifat talablari - topshiriq murakkabligi differentsiyalansa-da, bajarilgan ishning texnik sifatiga qo'yiladigan talablar pasaytirilmasligi;



- ijobiy motivatsion muhit - guruhlarga ajratish o'quvchilarni "tamg'alach" vositasiga aylanmasligi, har bir yutuq rag'batlantirilishi;
- yuqoriga harakat istiqboli - har bir o'quvchi uchun keyingi darajaga o'tishning aniq va erishiladigan mezonlari belgilanishi.

Ushbu shartlarga rioya qilingan holda tashkil etilgan mashg'ulotlarda zaif o'zlashtiruvchi o'quvchilarning tayanch operatsiyalarni bajarish sifati sezilarli yaxshilanishi, kuchli o'quvchilarning esa ijodiy faolligi va mustaqilligi ortishi kuzatiladi. Eng muhimi, "o'rtacha o'quvchiga mo'ljallangan" an'anaviy yondashuvda e'tibordan chetda qoladigan ikki qutb - qiynalayotgan va ilg'or o'quvchilar - ta'lim jarayonining to'laqonli ishtirokchisiga aylanadi.

XULOSA

Kiyim mayda detallariga ishlov berish tikuvchilik kasbiy tayyorgarligining eng mas'uliyatli mavzularidan biri bo'lib, uni o'zlashtirishda o'quvchilarning individual farqlari yaqqol namoyon bo'ladi. O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, mazkur mavzuni o'qitishda differensial ta'lim metodlarini - diagnostika asosida shartli guruhlash, darajali instruksion-texnologik kartalar va topshiriqlar tizimi, differensiyalashgan joriy yo'l-yo'riq hamda mezonli baholashni - izchil qo'llash ta'lim sifatini oshirishning samarali vositasidir.

Differensial yondashuv har bir o'quvchiga o'z imkoniyatlari doirasida muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi, bu esa kasbiy ko'nikmalar bilan birga o'ziga ishonch va mehnatga qiziqishni shakllantiradi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar tahsil oladigan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida bu yondashuv korreksion-rivojlantiruvchi vazifani ham bajarib, o'quvchilarning ijtimoiy-mehnat moslashuvi uchun mustahkam asos yaratadi. Kelgusida har bir mayda detal turi bo'yicha uch darajali didaktik materiallar to'plamini ishlab chiqish va raqamli texnologiyalar (video-instruktajarlar, interaktiv trenajyorlar) bilan boyitish differensial ta'lim imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent, 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.
2. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent: Fan, 2006. 261 b.
3. Olimov Q.T., Uzoqova L.P., Xalilov E.Z. va boshq. Kasb ta’limi uslubiyoti. Toshkent: Fan va texnologiya, 2007. 240 b.
4. Hasanboyeva O.U., To‘xtaxo‘jayeva M.X. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. 400 b.
5. Shoumarova N., Maqsudova M. Tikuvchilik texnologiyasi. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Toshkent: O‘qituvchi, 2004. 320 b.
6. Abdullayeva Q.M., Yo‘ldosheva M.A. Tikuvchilik buyumlarini tayyorlash texnologiyasi. Toshkent: Ilm Ziyo, 2008. 288 b.
7. Po‘latova P.M., Mo‘minova L.R. Maxsus pedagogika. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. 224 b.
8. Vygotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya / pod red. V.V.Davydova. Moskva: Pedagogika-Press, 1996. 536 s.
9. Unt I.E. Individualizatsiya i differentsiatsiya obucheniya. Moskva: Pedagogika, 1990. 192 s.
10. Selevko G.K. Sovremennye obrazovatelnye texnologii: uchebnoe posobie. Moskva: Narodnoe obrazovanie, 1998. 256 s.
11. Tomlinson C.A. How to Differentiate Instruction in Academically Diverse Classrooms. 3rd ed. Alexandria, VA: ASCD, 2017. 198 p.



12. Heacox D. Differentiating Instruction in the Regular Classroom: How to Reach and Teach All Learners. Minneapolis: Free Spirit Publishing, 2012. 176 p.
13. Skakun V.A. Organizatsiya i metodika professionalnogo obucheniya: uchebnoe posobie. Moskva: FORUM–INFRA-M, 2007. 336 s.